

O'zbekiston va Pokiston yetakchilari ko'p qirrali sheriklikni rivojlantirish bo'yicha aniq qadamlarni belgilab oldilar



14-aprel kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Pokiston Islom Respublikasi Bosh vaziri Imron Xonning videoanjuman shaklidagi uchrashuvi bo'lib o'tdi.

Kun tartibidan ko'p qirrali O'zbekiston-Pokiston sherikligining dolzarb masalalari, shu jumladan konstruktiv siyosiy muloqotni rivojlantirish, savdo, investitsiyalar, transport va tranzit sohasidagi amaliy hamkorlikni, hududlar o'rtasidagi almashinuvlarni kengaytirish, madaniy-gumanitar hamkorlik dasturlarini ilgari surish masalalari o'rin oldi.

Suhbat avvalida ikki mamlakat yetakchilari muborak Ramazon oyi boshlangani munosabati bilan bir-birini samimiy tabriklab, do'st xalqlarimizga tinchlik, farovonlik va ravnaq tiladilar.

Keyingi yillarda oliy va yuqori darajadagi muntazam muloqotlar ikki tomonlama munosabatlarning jadal rivojlanishiga, ularni aniq mazmun bilan boyitishga xizmat qilgani katta mamnuniyat bilan qayd etildi.

Pandemiyaga qaramay, faol almashinuvlar davom etdi. O'zaro savdo hajmi oshib, qo'shma biznes loyihalari soni ko'paymoqda.

Hududlar o'rtasida sheriklik aloqalari yo'lga qo'yilmoqda. Xususan, joriy yilning fevral oyida Panjob shtati hokimi rahbarligidagi ishbilarmonlik missiyasining Namangan viloyatiga tashrifi muvaffaqiyatli o'tdi.

Birgalikdagi sa'y-harakatlar bilan Transafg'on temir yo'lini qurish bo'yicha strategik loyiha amalga oshirilmoqda.

Ta'lim, madaniyat va turizm sohasidagi ikki tomonlama hamkorlik ham kengaymoqda.

Onlayn-uchrashuvda O'zbekiston va Pokiston o'rtasidagi sheriklik va amaliy hamkorlikni kengaytirishning

asosiy vazifalari batafsil ko'rib chiqildi va birinchi galdagi choralar belgilab olindi. Bo'lajak tadbirlar rejasi kelishildi.

Konstruktiv siyosiy muloqotni, parlamentlararo hamda xalqaro va mintaqaviy tuzilmalar doirasidagi yaqin aloqalarni davom ettirishga alohida e'tibor qaratildi.

Transport va tranzit sohasidagi ustuvor loyihalarni ilgari surish, tovar ayirboshlashni ko'paytirish va ishlab chiqarish kooperatsiyasini kuchaytirish uchun qulay sharoitlarni yaratish uchun qo'shimcha choralar ko'rish, jumladan, imtiyozli savdo to'g'risida bitim va iqtisodiyotning asosiy tarmoqlarida hamkorlik bo'yicha "yo'l xaritasi"ni qabul qilish, qo'shma ishbilarmonlik forumlarini o'tkazish yuzasidan kelishuvlarga erishildi.

Mamlakatlarimiz o'rtasidagi aviaqatnovlarni tiklash masalasi o'rganiladi.

Ikki mamlakat yetakchilari Afg'onistondagi vaziyatni tinch yo'l bilan tez fursatda hal etish masalalariga alohida to'xtaldilar. Ushbu mamlakatning jadal iqtisodiy tiklanishiga qaratilgan sa'y-harakatlar qo'llab-quvvatlandi.

Xalqaro va mintaqaviy kun tartibining boshqa jihatlari yuzasidan ham fikr almashildi.

Umuman, O'zbekiston-Pokiston sammiti har doimgidek ochiq, amaliy va do'stona ruhda o'tdi.

Uchrashuv yakunida Qo'shma bayonot qabul qilindi hamda standartlashtirish va metrologiya, qishloq xo'jaligi va boshqa sohalarda qator muhim hujjatlar imzolandi.









Manba